

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.T.Zokirov</b>	
Lingvistik interferensiyaning mohiyati hususida .....	939
<b>N.R.Umarova, O.T.Maxmudova</b>	
O'zbek tilshunosligida nutq tovushlarining tasnifi masalasi .....	944
<b>M.A.Matmusayeva</b>	
O'yin nomlarida lingvomataniy xususiyatlarning ifodalanishi .....	949
<b>D.M.Buzrukova</b>	
"Muhabbat" konsepti hissiy olam manzarasining muhim elementi sifatida .....	953
<b>N.A.Ibragimova, N.D.Axmedova, A.Sh.Tursunov</b>	
Tilshunoslikda modus tushunchasi .....	957
<b>S.M.Zokirova G.Sh.Xusanova</b>	
Sosiolingvomataniyatshunoslik kontekstida bolalar o'yinlari tushunchasi .....	961
<b>D.M.Yuldasheva</b>	
Bolalarga xos matnlarda realiyalarning ifodalanishi .....	966
<b>T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov</b>	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi .....	971



UO‘K: 811.512.133(062)

**TILSHUNOSLIKDA MODUS TUSHUNCHASI****ПОНЯТИЕ МОДУСА В ЛИНГВИСТИКЕ****THE CONCEPT OF MODUS IN LINGUISTICS****Ibragimova Nigora Abdusamat qizi<sup>1</sup>** <sup>1</sup>Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi**Axmedova Nigora Diyorjon qizi<sup>2</sup>** <sup>2</sup>Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi**Tursunov Asadullo Shuhratjon o‘g‘li<sup>3</sup>** <sup>3</sup>Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada modus haqida izoh beriladi. Modus lotincha “modius” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘lchov, tur, qoida kabi ma‘nolarni anglatadi. Modus dastlab mantiqshunoslik fanida nutq orqali fikrning tasdiq yoki inkor shakllarini ifodalash uchun qo‘llangan. Modus tilshunoslik fani tadqiqot predmetini sezilarli darajada kengaytiradi. Ya‘ni, sof tilshunoslik masalalari matnning semantik, sintaktik tahlili bilan chegaralansa, modus matnda mantiqiylik kategoriyasi mavjud bo‘lishini talab etadi va aynan matn mantiqida nazarda tutilgan fikr tahlili ustida ilmiy munozaraga kirishadi. Matndan anglashilgan fikr va modus hodisasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli ham modus dastavval adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Adabiyotshunoslik fani doirasida modus asosiy urg‘u olgan fikr ifodasi bilan bog‘lanadi va u ko‘proq badiiylik jihatdan baholanadi. Modus mohiyatida tanqidiy munosabat, tahlil, baho va subyektiv fikr yotadi. Tilshunoslik fani doirasida mazkur tushuncha nisbatan yangi atamadir. Tilshunoslikda bu masala pragmatolingvistika yo‘nalishi tarkibida o‘rganiladi.

**Аннотация**

О модусе будет рассказано в статье. Модус происходит от латинского слова “Modius”, означающего меру, тип, правило. Модус изначально использовался в логической науке для выражения форм утверждения или отрицания мысли посредством речи. Модус лингвистической науки значительно расширяет предмет исследования. То есть, в то время как чисто лингвистические вопросы ограничиваются семантическим, синтаксическим анализом текста, модус требует наличия в тексте категории логики и вступает в научную дискуссию именно над анализом мысли, подразумеваемым логикой текста. Понятая из текста мысль и явление модуса неразрывно связаны между собой. По этой причине модус изначально изучался с точки зрения литературоведения. В рамках литературной науки модус связан с выражением мысли, в котором основной упор делается на художественную ценность. В основе модуса лежит критическое отношение, анализ, оценка и субъективное мнение. В рамках лингвистической науки это понятие является относительно новым термином. В лингвистике этот вопрос изучается в рамках направления прагматлингвистики.

**Abstract**

The article will comment on the modus. Modus is derived from the Latin word “modius” meaning measure, type, rule. Modus was originally applied to the science of logic to represent forms of affirmation or negation of thought through speech. The science of Modus linguistics significantly expands the subject of research. That is, if purely linguistic issues are limited to semantic, syntactic analysis of the text, then the modus requires that the text contains a category of logic and enters into a scientific discussion precisely on the analysis of thought, which is implied in the logic of the text. The phenomenon of thought and modus, understood from the text, is inextricably linked with each other. For this reason, the modus was originally studied from the point of view of literary studies. Within the discipline of literary studies, modus connects with the expression of thought that receives the main emphasis, and it is more artistically evaluated. In the essence of Modus lies a critical attitude, analysis, assessment and subjective opinion. Within the science of linguistics, this concept is a relatively new term. In linguistics, this issue is studied as part of the direction of pragmatlinguistics.

**Kalit so‘zlar:** Modus, modallik, pragmati tahlil, emotsional baho, ekspressiv so‘zlar.**Ключевые слова:** Модус, модальность, прагматический анализ, эмоциональная оценка, экспрессивные слова.**Key words:** Modus, modality, pragmatic analysis, emotional assessment, expressive words.

## KIRISH

Tilshunoslik fani doirasida mazkur tushuncha nisbatan yangi atamadir. Tilshunoslikda bu masala pragmatolingvistika yo'nalishi tarkibida o'rganiladi. Modus tushunchasini modallikdan farqlash zarur. Bunda birinchi eng asosiy farq modusning fikr, munosabat bilan, modallikning esa munosabat ifoda etuvchi shakl ekanligida ko'rish mumkin. Soddaroq aytganda, bu nima degani? Modus so'zlovchi, muallif, ya'ni adresantning obyektiv borliqqa munosayuti bo'lsa, modallik uning lingvistik shakllarda ifodalanishidir. Modus modallikka nisbatan keng ma'nodagi tushuncha. Chunki u lingvistik axborot shakli – matndan tashqari turli tasvirlar, rang, shakl va hokozolar orqali ham anglashilishi mumkin. Tilshunoslik doirasidagi ko'rinishi uning tarkibiy qismlaridan biridir. Modal so'zlar esa so'zlovchi munosabatini ifodalovchi lingvistik birliklar. Boshqacha aytganda, modusning tilshunoslik doirasidagi vositalari tarkibiga kiruvchi shakllardan biridir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fikr va munosabatga aloqadorligi sababli bu atama ko'proq adabiyotshunos olimlarning e'tibor markazida bo'lgan. Uni fan olamida ilk bor qo'llagan olim ham kanadalik adabiyotshunos Nortrop Fray hisoblanib, u mazkur atamani muallifning asar qahramoniga bo'lgan bahosini izohlash ma'nosida qo'llagan. Rus olimi Valeriy Tyupa bu tushunchaga muallifning g'oyaviy–emotsional bahosi, deb qaraydi.

O'zbek adabiyotshunosi, professor D.Quronov esa modusni “g'oyaviy-hissiy munosabat yoxud muallif emotsionalligidan tashqari, qahramonni tipiklashtirishning o'ziga xos ko'rinishi” deb izohlaydi<sup>16</sup>.

Modusning matndagi ifoda imkoniyatlarini paydo bo'lishida tahlil va tanqid kategoriyalari asos bo'lgan. Jumladan, O.N.Kopitov rus adabiyotida XVI asrga qadar bo'lgan barcha matnlar diniy e'tiqodga bag'ishlanganligini, ayniqsa, o'rta asrlarda yaratilgan asarlarning aksariyati sakral adabiyot xarakterida ekanligi va ularda modusni topib bo'lmashligini aytadi.

Modus mohiyatida tanqidiy munosabat, tahlil, baho va subyektiv fikr yotadi. Diniy e'tiqod yoki tasavvufiy g'oyalar bilan to'yintirilgan mumtoz adabiyot namunalari bu belgilardan holidir. Shu bois “matnga nisbatan ilmiy filologik, tanqidiy va shubha bilan yondashish shakllanguniga qadar hozirgi ma'nodagi modus mavjud bo'lmagan<sup>17</sup>”.

## NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbek tilshunosligida bu mavzuda Z.Yigitalieva monografik planda tadqiqotlar olib borgan. Ammo bu tilshunoslikda matnga bo'lgan mazmuniy munosabat ham yangi paydo bo'lgan degani emas. “Modus yozuv paydo bo'lmashdan avval, ya'ni og'zaki adabiyot shakllana boshlagandan buyon mavjuddir”. Faqat ko'p vaqtlar mobaynida tilshunoslik fani doirasida matnda ifodalangan munosabat shakllari modallik tushunchasi orqali ifodalanib kelingan.

Aslini olganda, modus tilshunoslikning asosiy mantiqiy kategoriyalaridan biri. Uning turli shakllarini farqlash mumkin. Masalan, bevosita (to'g'ridan-to'g'ri, ochiq) ifodalangan modus va bilvosita (yopiq, yashirin) ifodalangan modus.

Modusning bevosita ifodalanishi, ko'pincha, qahramon nutqi orqali, dialog tarzida namoyon bo'ladi. Masalan,

–To'qqizda joyimda bo'lishim kerak. Yo pulni olib boraman...

–Yo kalamni olasanmi?

–Vey, paxan, sening bu durnoy bashkang kimga kerak? ...nima qilishni o'zim bilaman. ...Bolalaring ko'rinishmaydi, maktabda shekilli, a? Hozir ko'rib qoldim ketishayotganini... Kattangga yangi palto olib beribsan,a? Sendaqa dobriy papashkalarni yaxshi ko'raman.

Sharif uning nimaga sha'ma qilayotganini anglab, qo'rqib ketdi:

–Bolalarimga tegma!

–Umnisa! ...Ha, xotining sutga chiqqan ekan. Odam ko'p. Navbatda turibdi. Hech qaysi davlatda vinzavod direktorining xotini azonlab sutga yugurmaydi. Mazgangni ishlat, he so'tak!(*Shaytanat, 2-kitob. 164-bet*)

<sup>16</sup> Yakubov I.A. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi: filologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 23 b.

<sup>17</sup>Копитов О. Н. Способ действия в текстовом поле: монография. Хабаровск: ХГИИК нашриёти, 2012.–81 бет.

## ILMIY AXBOROT

Ushbu misolda qahramon nutqi va unda qo'llanilgan muloqot odobiga zid uslub, tahdid munosabati hamda varvarizmlar adresatda so'zlovchi haqidagi tasavvur hosil bo'lishi va tasavvur bilan parallel holatda uning yomon odam ekanligi haqidagi tanqidiy munosabat shakllanishiga omil bo'ladi.

Modusning bilvosita – yopiq ifodalanishida esa muallif nutqi yordam beradi. Masalan,

*...U Hosilboyvachcha deganlarini eshitgan, qo'chqorlarning biri shu ekanini ham bilardi. Ammo o'zini ko'rmagan edi. Ozg'in yuzidagi katta yumaloq ko'zlari bolakay chizgan suratni eslatuvchi, qaldirg'och mo'ylovli, qirra burunli bu yigit o'ziga erinmay zeb bergan edi. Kiyimlarining Taxi buzilmagan, biron erda g'ijimning asorati yo'q, xuddi u hech erda o'tirmaydiganday, suyanmaydiganday edi. Ikkala qo'lining barmoqlarida bittadan tilla uzuk. Bu odamdan taralayotgan atir hidiga dimoq yorilib ketay deydi. Elchinni hayron qoldirgan narsa bu emas, bundan olifta yuruvchilar ko'p. Elchin to'yga aytib kelgan bu yigitni zimdan kuzatib, uning kiprik qoqmasligini ilg'adi. O'qday qadalib turgan nigohidan odam bolasida kam uchraydigan sovuq o't chaqnat turardi. Bu nigoh "senga yaxshilik qilaman" deb alday olmasdi. U to'g'risini aytardi: mendan faqat yomonlik kut!*

*("Shaytanat", 1-kitob, 302-bet)*

Ushbu misolda keltirilgan qahramon tashqi tasviri muallifning qo'shimcha izohlari bilan adresat fikrini o'z maqsadiga ko'ra yo'naltiradi. Bunda uning ta'rifida keltirilgan *Qo'chqor so'zi, qaldirg'och mo'ylovli, kiyimlarining Taxi buzilmagan, bolakay chizgan suratni eslatuvchi, bu odamdan taralayotgan atir hidiga dimoq yorilib ketay deydi* kabi jihatlar so'zlovchida ma'lum fikrlash jarayonini boshlab bersa, uning *kiprik qoqmasligi* hamda *nigohidagi sovuq o't chaqnashi* fikrlarga xotima yasaydi, yani u yomon odam.

Modusda shakllar asosiy mazmunning ifodalanishiga xizmat qiladi. Bunda vositalar har doim ham bir xil qolipda shakllanmaydi. Qahramon xarakteri, odatlari va obrazlilikni ifodalash maqsadida ular ba'zan shakl va mazmunda nomutanosiblikni ham taqazo etadi. Masalan,

*Shaxt o'rnimdan turdim-da, xayrlashmasdan eshikka yo'naldim.*

*-Shoshmang! – dedi u baqirib.*

*To'xtadim.*

*-Qayting! – "Opal" qutisidan sigaret olib labiga emas, sarg'ayib ketgan tishlari orasiga qistirdi. Go'yo g'ajib tashlamoqchi bo'lgandek.*

*-Aytaver dardingni! – dedi to'satdan sensirab.*

*Gap boshlashim bilan chehrasi yorishdi.*

*-Shomansur akaning o'g'limisan? Tashla qo'lni! Otang ajoyib odamlar! U kishi to'g'risida ocherk yozganman. Ishning ko'zini biladigan rais edilar... O'zing qaerda ishlaysan? ("Tushda kechgan umrlar", 175-bet)*

Misolda keltirilgan matn parchasida modusning o'zgarishi tuslanishini ko'rish mumkin. Shaxs ta'rifida berilgan sarg'ayib ketgan tishlar, harakatlaridagi tishlari orasiga qistirdi, g'ajib tashlamoqchi bo'lganday birikmalari hamda nutqidagi baqirib, sensirab birliklari qahramon haqida salbiy fikr shakllanishiga asos bo'layotgan bo'lsa, chehrasi yorishdi birikmasi hamda tinglovchining otasi haqidagi aytgan iliq so'zlari, hurmati va *tashla qo'lni!* undovi orqali u haqidagi munosabat o'zgartiriladi. Matndagi sensirab so'zi oldidan keltirilgan to'satdan ravishining qo'llanilishi bu o'zgarishning boshlanish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Modus inson fikri va munosabati bilan uzviy bog'liq ekan, u fikr va munosabatlarga mos ravishda o'zgaruvchanlik kasb etishi yoki o'zgrmas (stadil) bo'lishi mumkin. O'zgarishlar, ko'pincha, vaqt va dunyoqarashning o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi.

### XULOSA

Matn nuqtai nazaridan tahlil etadigan bo'lsak, modus o'zgarishining kontakt va distant turlarini farqlash mumkin. Yuqorida keltirilgan misol modus o'zgarishining kontakt holatiga misol bo'ladi. Ya'ni matn davomiyligi uzilmagan holatda munosabat o'zgarib, turlicha shakllanib boradi.

Modus o'zgarishining distant holatini esa, asosan, katta hajmli badiiy matnlarda uchratish mumkin. Masalan, O'.Hoshimovning "ikki eshik orasi" romanida asar qahramoni Robiyaning Umar zakunchi haqidagi fikrlarida asar o'rtalariga borganda butunlay teskari mazmunga o'zgaradi. Uni ifoda etgan til birliklari o'rtasidagi voqealar modus o'zgarishiga asos vazifasini o'taydi.

Ko'rinadiki, modus tilshunoslikning eng muhim masalalarini qamrab oladi. Lingvistik vositalar – ekspressiv so'zlar, emotsional bo'yoqdor so'zlar modusning yuzaga chiqarilishiga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Балли Ш. Обшчая тилшунослик ва Вопросы французского языка. - М.: Издательство Иностранной адабиёти, 1955.
2. Копитов О. N. Способ действия в текстовом поле: монография. Хабаровск: ХГИИК нашриёти, 2012.-81 бет
3. Гак В.Г. О категориях модуса предложения // Предложение и текст в семантическом аспекте. – Калинин: Изд-во Калинин. ун-та, 1978.
4. Yakubov I.A. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi: filologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 23 b.
5. M Hakimov O'zbek pragmalingsvistikasi asoslari. Toshkent: Akadernashr – 2013
6. M Hakimov, U Nosirova On pragmapoetic symptoms - Конференции, 2020
7. Hakimov M. M, Ibragimova N. A. (2022) About the text modus 10(5) 148-153